XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 5 - sentabr VI-45-60-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

Izboskan tumanida 2023 yilning 6 oyida qonuniylik ahvoli, jinoyatchilikka qarshi kurash holati hamda 2-sektor faoliyati to‘g‘risida

Mamlakatimizda so‘nggi yetti yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida barcha sohalarda o‘zgarishlar va yangilanishlar ro‘y bermoqda, aholi turmush darajasi tubdan yaxshilanmoqda.

Ayniqsa, qabul qilinayotgan qonunlar, eng avvalo, inson qadrini ulug‘lashga, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilayotganligi yuksak e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

Joriy yilda o‘tkazilgan umumxalq referendumi asosida O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyasiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritilib, uning yangi tahriri qabul qilinganligi xalqchil islohotlarning uzviy davomi bo‘ldi.

Izboskan tuman prokuraturasi tomonidan 2022 yilning 6 oyi davomida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligida islohotlarni jadallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shartnoma va to‘lov intizomini mustahkamlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Bunda asosiy e’tibor huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona va tashkilotlarning faoliyati muntazam o‘rganilib, qonunsiz qarorlar qabul qilinishiga chek qo‘yish,

fuqarolarning huquq va manfaatlarini buzilishini oldini olish hamda qonun normalarini aniq, bir xilda bajarilishini ta’minlashga qaratilib, qonun buzilishi holatlariga nisbatan qat’iy prokuror nazorati hujjatlari qo‘llab borilgan.

Xususan, tuman prokuraturasi tomonidan 2023 yilning 6 oyida jami 94 ta tekshirish o‘tkazilib, yakuni bo‘yicha 449 ta prokuror nazorati hujjatlari qo‘llanilgan.

Shundan 163 ta noqonuniy hujjatlarga nisbatan protest keltirilib, qonun talabiga muvofiqlashtirilgan yoki bekor qilingan, aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan 90 ta taqdimnoma kiritilgan.

Taqdimnoma va qarorlar asosida 56 nafar shaxslar intizomiy, 79 nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilgan, 10 nafar mas’ul shaxslar kelgusida qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari haqida ogohlantirilgan, sudlarga 134 ta 6 mlrd. 524 mln. so‘mlik da’vo arizalari kiritilgan, shu bilan birga 185 mln. so‘mlik yetkazilgan zararlarning ixtiyoriy qoplanishiga erishilgan jiddiy qonun buzilish holatlari yuzasidan 17 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, qo‘llanilgan prokuror nazorati hujjatlari natijasida 295 nafar (91 nafar yuridik shaxs) shaxslarning huquqlarini tiklanishiga erishilgan.

Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi alohida nazoratda olingan bo‘lib, tumanda bu borada amalga oshirilgan ishlarni samara bergan deb bo‘lmaydi.

Joriy yilda olib borilgan profilaktik tadbirlarga qaramay voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 4 (3) tani tashkil etib, o‘tgan o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ortgan.

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 1 nafari qiz bola, 2 nafari kasb-hunar kolleji hamda 2 nafari umumta’lim maktablari o‘quvchilaridir.

Sodir etilgan jinoyatlarning 2 tasi o‘g‘irlik hamda 2 tasi badarga qasddan o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatni tashkil etadi.

Misol uchun, voyaga yetmagan M.G‘ulomqodirov 2023 yil15 iyun kuni

soat 21:30 larda 2008 yilda tug‘ilgan voyaga yetmagan I.Ochilov bilan o‘zaro janjallashib qolib, qo‘li bilan I.Ochilovgi urib unga o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazgan. Tuman IIB tomonidan JKning 105-moddasi 1-qismi bilan qo‘zg‘atilib, hozirda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Shuningdek, joriy yilning 6 oyi davomida tirik tug‘ruqlar 2132 tani tashkil etgan. Bolalar o‘limi soni 34 tani (34/34) tashkil etib, onalar o‘limi yuzaga kelmagan. *(o‘tgan yilning 6 oyida onalari o‘limi 1 tani tashkil etgan).*

Tuman prokuraturasi tomonidan chaqaloq o‘limlarining barchasi bo‘yicha tergovga qadar tekshirish harakatlari o‘tkazilib, qonuniy qaror qabul qilinishi ta’minlangan.

Shu bilan birga, ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida ham qator kamchiliklar mavjud.

Xususan, tumanda 257 432 nafar aholi mavjud bo‘lib, shundan 9 613 ta ishsiz aholi mavjud bo‘lib, joriy yilning o‘tgan davri mobaynida 2 198 nafar yoki 22,9 foiz ishsizlar ishga joylashtirilgan xolos.

Tumanda sog‘liqni saqlash sohada ham yetarli darajada ishlar tashkil etilmagan.

Xususan, joriy yilning o‘tgan davri mobaynida yuqumli kasalliklar tahlil qilinganida, virusli gepatit kasalligi 2022 yilning xuddi shu davriga nisbat 21 taga (12/31), qo‘tir kasalligi 13 taga (39/42) ortganligi achinarli holatdir.

Tumanda onalik va bolalikni muhofaza qilish yo‘nalishida bir qator xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi natijasida onalar o‘limi 2 taga (1/3) ortgan.

2-sektor tomonidan 2023 yilning 6 oyi davomida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, fuqarolar muammolarini o‘rganish va ularni hal etish, bandligini ta’minlash hamda hududda tadbirkorlikni yuksaltirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Jumladan, 2-sektorda “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar soni 96 tani,

“Ayollar daftari”ga kiritilganlar soni 1595 tani, “Yoshlar daftari”ga kiritilganlar soni 655 tani tashkil etadi.

Joriy yilning 6 oyida davomida “Temir daftar”dagi 23 ta oilalar, “Ayollar daftari”dagi 1240 nafar ayollar hamda “Yoshlar daftari”dagi 381 nafar yoshlarga amaliy yordam ko‘rsatilib, daftardan chiqarilishi ta’minlandi.

Hududdagi yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish eng dolzarb masala bo‘lganligi sababli, o‘tgan davr mobaynida 24 marotaba yoshlar bilan sayyor qabul tashkil etilib, ulardan kelib tushgan murojaatlarni 87.9 % hal etilishi ta’minlandi.

Sektor rahbarining shaxsiy tashabbusi bilan hududidagi M.Ulug‘bek MFYda yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaro G.Mamadaliyevaga 13 mln. so‘mlik, Mustaqil ko‘chasida yashovchi X.Abduraxmonovaga 10 mln. so‘mlik yashash xonadoni ta’miri uchun homiylik asosida qurilish materiallari olib berildi.

Joriy yilning o‘tgan davrida olti marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik tashkil etilib, bugungi kunga qadar 72 ga yaqin bemorlarga davolanish uchun yo‘llanma berilishi ta’minlandi.

Og‘ir ijtimoiy holatga tushib qolgan M.Raximovga davolanishi uchun homiylik asosida 2.5 mln. so‘m mablag‘ va oilasiga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

Hududda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 330 nafar fuqarolarga 7 mlrd. 15 mln. so‘m miqdorida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kredit ajratildi.

Aholi muammolarini doimiy o‘rganish va ularga sharoitlar yaratish bo‘yicha 50 ga yaqin sayyor qabullar o‘tkazilib, 800 ga yaqin murojaatlar tinglandi.

Shundan 608 tasi qanoatlantirildi, 162 tasiga huquqiy tushuntirish berilib, qolgan 30 ga yaqin murojaatlar tegishliligi bo‘yicha boshqa korxona va tashkilotlarga yuborildi.

Aholi uchun zarur ehtiyoj hisoblangan suyultirilgan gaz ballonlarini almashtirish 45-47 kun etib belgilangan bo‘lsada, ayrim mahallarda 50-60 kun va undan ko‘p muddat davomida almashtirib berilmasdan, sektor rahbarining talabi va aralashuvi bilan almashtirib berilgan.

Ayni vaqtda tabiiy gaz va gaz ballon bilan bog‘liq 50 ga yaqin murojaatlar “Tumangaz” bo‘limi tomonidan o‘rganilmasdan, o‘z holiga tashlab qo‘yilganligi, soha rahbari va xodimlarining mas’uliyatsizligi, aholida norozilik kayfiyati shakllanishiga olib kelmoqda.

Xuddi shu kabi holatni tuman suvta’minot hamda elektr ta’minoti korxonalari misolida ham ko‘rish mumkin.

Xususan, Qo‘g‘ay va Cho‘rtonliq MFY hududlarida 2019-2020 yillarda ichimlik suvi tortish ishlari boshlanib, joriy yil aprel oyiga qadar yakunlanmagan bo‘lsada, tuman “Suvta’minot” filiali mansabdor shaxslari tomonidan ushbu masala yechimini topish choralari ko‘rilmagan.

Yoki, Toshkechik MFY, Oboddiyor ko‘chasi yashovchi 7 nafar xonadonda elektr kuchlanishi pastligi va beton stolba o‘rnatish bo‘yicha bir necha bor tuman ETK hududiy bo‘limiga murojaat qilingan bo‘lsada, muammo hal etilmasdan kelingan. (keyinchalik sektor rahbari aralashuvi bilan hal etilgan)

Shuningdek, tumanda hokim yordamchilarini sektor rahbarining roziligisiz boshqa hududga o‘tkazish kabi salbiy amaliyot yuzaga kelgan bo‘lib, ushbu holat ularning yangi hududni o‘rganishi, undagi muammolarni tahlil qilishi va hududga moslashishi uchun bir necha oy vaqt talab qilinib, ish samaradorligiga salbiy ta’sir qilmoqda.

Misol uchun, tumanning Mirzo Ulug‘bek MFY hokim yordamchisi Z.Xamidov Yangi Bo‘stonobod MFYga, Toshkechik MFY hokim yordamchisi Z.Jabborov Beshmirza MFYga, Beshmirza MFY hokim yordamchisi I.Mamajonov Jaxonobod MFYga o‘tkazilgan.

Shunga ko‘ra, Kengash deputatlaridan ushbu masalani atroflicha muhokama qilib, hokim yordamchilarini ishga qabul qilish yoki boshqa hududga o‘tkazishdan oldin, ushbu masalasini sessiya muhokamasiga kiritib,

atroflicha muhokama qilinishini so‘rab qolar edim.

Bundan tashqari, yoshlar yetakchilari faoliyatini ham qoniqarli deb bo‘lmaydi. Hududidagi 6 mingdan ortiq ishsiz yoshlardan atigi 723 nafari bandligi ta’minlangan xolos.

Yoki, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Beshterak MFYda yashovchi E.Tavakkalov ko‘zini davolatishda amaliy yordam so‘rab, agentlikning tuman bo‘limi va mahalla yetakchisiga bir necha bor murojaat qilgan bo‘lsada, uning murojaatlari yechimini topmay kelgan.

Tuman prokuraturasi aralashuvi bilan platformaga kiritilishi va ko‘zlarini jarrohlik yo‘li bilan davolatish uchun 6 mln so‘m mablag‘ yo‘naltirib berilishi ta’minlandi.

Shuningdek, iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishi ham kamchiliklardan holi emas.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli Qarori bilan joriy yilda tumanda jami 3,22 megavatt quvvatga ega quyosh panellari va boshqa energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish belgilangan.

Jumladan, belgilangan reja ijtimoiy soha ob’yektlari va davlat idoralarida 64.1 foizga, *tadbirkorlik sub’yektlarining bino va inshootlarida* 46 foizga, *aholi xonadonlarida* 20,0 foizga bajarilgan xolos.

Tumandagi 5 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 2 ta umumta’lim maktablarini ko‘mir yoqilg‘isiga moslashtirish ob’yektlarini loyihalashtirish ishlari xanuzgacha yakunlanmagan.

Mazkur yo‘nalishda aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan tuman hokimining iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Umarovga nisbatan intizomiy javobgarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan.

Kommunal soha bo‘yicha, tumanida tabiiy gazdan jami debitorlik

qarzdorlik 1 880,6 mln. so‘mni, shundan muddati o‘tgan qarzdorlik 138 mln. so‘mni tashkil etadi.

Joriy yilda iqtisodiy sudiga 21 ta 384,8 mln. so‘mlik tuman prokuraturasi tomonidan hamda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudiga 109 ta 411,672,3 so‘mlik tuman gaz filiali tomonidan da’vo arizalar kiritildi.

Tuman gaz filiali mansabdor shaxslariga nisbatan 1 ta 1,5 mlrd. so‘m zarar yetkazilganligi holati yuzasidan (noreal qarzdorlik) jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, ayblov xulosasi bilan sudga yuborilgan.

Tumanida elektrdan jami debitorlik qarzdorlik 18 433 mln. so‘mni, shundan muddati o‘tgan qarzdorlik 3,134 mln. so‘mni tashkil etadi.

Joriy yilda tuman prokuraturasi tomonidan iqtisodiy sudga 30 ta 3 mlrd. 592,5 mln. so‘mlik hamda tuman gaz filiali tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga 29 ta 2 mlrd. 291,1 mln. so‘mlik da’vo arizalar kiritildi.

Tuman elektr tarmoqlari korxonasi mansabdor shaxslariga nisbatan 2 ta 2,6 mlrd. so‘m zarar yetkazilganligi holati yuzasidan (noreal qarzdorlik) jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, jazo muqarrarligi ta’minlangan.

Shuningdek, 01.07.2023 yil holatiga tijorat banklari tomonidan ajratilgan 132 mlrd. 500 mln. so‘m imtiyozli kredit mablag‘larining 30 mlrd. 395 mln. so‘mi yoki 22,9 foizi muddati o‘tgan qarzdorlikni tashkil etadi.

Ushbu qarzdorlikning 25 mlrd. 895 mln. so‘mi ATB “Agrobank” Izboskan filiali, 4 mlrd. 500 mln. so‘mi AT “Xalq banki” Izboskan filiali hisobiga to‘g‘ri keladi.

Bundan tashqari, 01.07.2023 yil holatiga MIB Izboskan tuman bo‘limi ish yurituvida mazkur yo‘nalishda jami 1503 ta qiymati 48 mlrd. 40 mln. so‘mlik ijro hujjatlari kelib tushgan.

Shundan, 1178 ta qiymati 36 mlrd. 962,7 mln. so‘mlik ijro hujjatlari tamomlangan va tugatilgan. 158 ta 9 mlrd. 635,6 mln. so‘mlik ijro hujjatlari to‘liq ijro etilgan. Hozirda, 325 ta 11 mlrd. 78 mln. so‘mlik qoldiqda ijro hujjatlari mavjud.

Bo‘lim tomonidan qoldiqdagi ijro hujjatlarining 18 ta 734 mln. so‘mligi bo‘yicha qidiruv e’lon qilingan, 14 ta qiymati 7 mlrd. 78 mln. so‘mlik mol-mulklar savdoga chiqarilgan, 1 ta qiymati 120 mln. so‘mlik mol-mulklar xatlangan.

Shuningdek, tumanning eksport prognoz rejasi yanvar-iyun oylari uchun 14,8 mln. AQSH dollar belgilangan bo‘lib, *(sanoat - 13,3 mln. AQSH doll., meva-sabzavot- 1,5 mln. doll.),* amalda 6,8 mln. AQSH dollarga *(sanoat - 6 mln. AQSH doll., meva-sabzavot 843 ming doll.)* yoki 45,7 foizga bajarilgan xolos.

Tumanida joriy yilning 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’yektlari 2275 tani tashkil qiladi. *(dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari*)

Joriy yilning 6 oyida yangitdan tashkil etilgan tadbirkorlik sub’yektlari soni 213 tani, shundan prokuratura amaliy yordami bilan 13 tani tashkil qiladi.

Faoliyati tugatilgan tadbirkorlik sub’yektlari soni 28 tani, tashkil etib, prokuratura amaliy yordami bilan 3 tasining faoliyati tiklangan.

Mazkur yo‘nalishda joriy yilning o‘tgan davrida olib borilgan nazorat tadbirlari davomida, 29 nafar tadbirkorlik sub’yektlariga amaliy yordamlar ko‘rsatilgan.

Xususan, 24 nafariga kredit ajratilishida, 3 nafariga kommunikatsiya tarmog‘iga ulanishida hamda 2 nafariga ushlab qolingan pul mablag‘lari qaytarilishida yordamlar ko‘rsatilgan.

Ushbu salbiy ko‘rsatkichlarning yuzaga kelishiga tuman soliq inspeksiyasi mansabdor shaxslarining o‘z xizmat vazifasiga loqaydlik bilan munosabatda bo‘layotganligi, ushbu holatlarga jiddiy ko‘z bilan qaramayotganligi sabab bo‘lmoqda.

O‘tkazilgan tekshirishlarda, aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan joylarga 3 ta taqdimnoma kiritilgan, 16 ta noqonuniy qarorlarga nisbatan protest keltirilgan, 4 nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilgan va 16 ta tadbirkorlik sub’yektlarining buzilgan

huquqlari tiklangan.

Bundan tashqari, tumanda amalga oshirilayotgan qurilish ishlari ustidan prokurorlik nazorati o‘rnatilgan.

Birgina, 2022 yilda investisiya dasturi (PQ-98) asosida 9 ta ob’yektda 24,8 mlrd. so‘m pul mablag‘lari moliyalashtirilib, ta’mirlash ishlari yakunlangan.

Mazkur ob’yektlarning 2 tasi nazorat o‘lchovidan o‘tkazilganida, 785 mln. so‘mlik aslida bajarilmagan qurilish ishlari to‘lov hujjatlariga qo‘shib yozilganligi aniqlandi.

Misol uchun, “Vodiy Biznes-House” MCHJ tomonidan tumandagi 47-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotini rekonstruksiya qilish loyihasi bo‘yicha aslida bajarilmagan 212.0 so‘mlik ishlar qo‘shib yozilgan.

Yoki, “Odil xamza” xususiy korxonasi tomonidan Oybek MFYning Toshko‘cha, Qashqarlik MFYning Naqshband ko‘chalarini me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish loyihasi bo‘yicha aslida bajarilmagan 573.1 mln. so‘m ishlar qo‘shib yozilgan.

Mazkur har ikkala pudratchi korxonalarga nisbatan jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Shuningdek, yana “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturi (PQ-172) asosida yana “Odil xamza” xususiy korxonasi tomonidan tumanning "Birlashgan" MFY hududida 1 ta suv qudug‘i va 5 km suv tarmog‘i qurish loyihasi bo‘yicha aslida bajarilmagan 422.4 mln. so‘mlik ta’mirlash ishlari qo‘shib yozilganligi aniqlanib, holat bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Shu bilan birga, “Tashabbusli byudjet” davlat dasturi (PQ-43) asosida “To‘rtko‘l qurilish ishonchi” MCHJ tomonidan tumandagi 12-son umumta’lim maktabini rekonstruksiya qilish ob’yekti bo‘yicha aslida bajarilmagan 203.3 mln. so‘mlik, “Inaveyshen bilding ta’mir” MCHJ tomonidan tumandagi 35-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotini joriy ta’mirlash ob’yekti bo‘yicha aslida bajarilmagan 93.0 mln. so‘mlik ish hajmlari qo‘shib yozilgan.

Tuman prokuraturasi tomonidan Agrar va oziq - ovqat sohalarini rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat borasida ham qator ishlar amalga oshirildi.

Tumanda 2023 yil hosili uchun 211 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan 6186 gektar maydonga boshoqli don ekinlari ekilgan bo‘lib, 16548 tonna g‘alla topshirish shartnomaviy rejasi 18727 tonnaga yoki 113,2 foizga bajarildi.

Biroq, tumanda 33 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan belgilangan reja bajarilmaganligi oqibatida 1 mlrd. 466 mln. so‘mlik 586,6 tonna g‘alla davlatga topshirilmadi.

Tumanda 2023 yilda 1000 gektar paxta, 100 gektar bog‘, 280 gektar boshqa ekinlar yetishtiriladigan maydonlarda tomchilatib sug‘orish, 100 gektar g‘alla maydonlarida yomg‘irlatib sug‘orish hamda 100 gektar maydonlarda diskritli sug‘orish tizimini tashkil etish belgilangan.

Hozirgi kunda 11 ta fermer xo‘jaliklarining 167 gektar paxta maydonlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun 2 mlrd. 250 mln. so‘m kredit mablag‘lari ajratilgan.

Qolgan 833 gektar paxta, 100 gektar g‘alla, 100 gektar bog‘, 280 gektar boshqa ekinlar rejalashtirilgan maydonlarda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish choralari ko‘rilmadi.

Bundan tashqari, tuman prokuraturasi tomonidan noqonuniy yer maydonlari egallab olish holatlari yuzasidan joriy yilning 6 oyi davomida 4 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilishi ta’minlandi.

Qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlarining 3 tasi “Agro pilla” MCHJga tasarrufidagi 0.51 gektar yer maydonlarini talon-toroj qilinganligi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga dehqon xo‘jaligi uchun yer maydoni ajratish (PQ-373) tumanda 95 ta holatda 14 gektar ochiq tanlovga qo‘yilgan yer maydonlari bo‘yicha g‘olib aniqlanmagan.

Shundan 10 ta holatda 1,5 gektar 1 marotaba, 50 ta holatda 7,6

gektar 5-10 martagacha, 5 ta holatda 0,8 gektar 11-20 martagacha, 24 ta holatda 3,6 gektar 21-30 martagacha, 6 ta holatda 0,8 gektar 30 va undan ko‘p marotaba tanlovga qo‘yilgan bo‘lsada g‘olib aniqlanmagan.

Buning birgina sababi, ushbu tanlovga qo‘yilgan lotlardagi yer maydonlari suvga noqulay, unumdorligi past va aholi yashash xonadonidan uzoqda joylashganidadir.

Prezident qarori (PQ-373) talablariga ko‘ra esa tanlovga qo‘yiladigan yer maydonlari buning aksi bo‘lishi lozim edi, mazkur holatni tuman hokimining sohaviy o‘rinbosari va qishloq xo‘jaligiga mas’ul bo‘lgan xodimlar qanday izohlaydi.

Faoliyatimizning asosiy yo‘nalishi hisoblangan jinoyatchilikka qarshi kurash borasida tumanda amalga oshirilgan ishlar ham o‘z samarasini bermagan.

Ta’kidlash joizki tumandagi kriminogen vaziyatni barqaror saqlash hamda jamoatchilik bilan hamkorlik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida tumanda kriminogen vaziyat talab darajasida deb bo‘lmaydi.

Xususan, 2023 yil 6 oyida tumanda umumiy jinoyatchilik 62 taga (219-157) yoki 39,5 foizga ortgan. 2023 yil 6 oyida ro‘yxatga olingan 219 ta jinoyatlar har 100 ming aholi soniga nisbatan 87,5 tani tashkil etib, shundan og‘ir va o‘ta og‘ir turdagilari 52 tani tashkil qiladi.

Tahlillarga ko‘ra, ro‘yxatga olingan jinoyatlarning 102 tasi (101) yoki 46,6 foizi oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarni tashkil etib, har 100 ming aholi soniga 40,7 tani tashkil etgan.

Yoki, aniqlanadigan jinoyatlar 117 (56) tasi (53,4%) tashkil etib, ushbu jinoyatlar har 100 ming aholi soniga nisbatan o‘rtacha 46,7 tani tashkil etib, viloyat ko‘rsatkichidan (58,1 ta) ortda qolgan.

Joriy yilning o‘zida sodir etilgan jami 130 ta jinoyatlar har 100 ming aholi soniga nisbatan 51,9 tani tashkil etgan.

Oshgan jinoyatlar turlari bo‘yicha tahlil qilinganda asosan – o‘zgani mulkini o‘zlashtirish va rastrata qilish yo‘li bilan talon-toroj qilish 16 (19-3)

taga, firibgarlik 8 (38-30) taga o‘g‘rilik 3 (17-14) taga, bezorilik 2 (3-1) taga, sohta tadbirkorlik 1 (1-0) taga oshgan.

Shuningdek, sodir etilgan jinoyatlar shaxslar kesimida tahlil qilinganda, - voyaga yetmaganlar tomonidan 1 (4-3) taga, guruhlar tomonidan 5 (20-15) taga, mast holatda 4 (5-1) taga, muqaddam sudlanganlar tomonidan 6 (16-10) taga, ayollar tomonidan 12 (33-21) taga, o‘quvchilar tomonidan 2 (4-2) taga ortgan.

Tumandagi jami 63 ta mahallalarning 38 tasida jinoyat sodir etilmagan (yashil), 17 tasida barqaror qogan (sariq), 8 tasida (qizil) ortib ketishiga yo‘l qo‘yilgan.

Xususan, A.Temur MFYda 2 ta, (105, 1 ta boshqa), Bo‘stonda 2 ta (97, 169), Do‘stlikda 1 ta (169), Yuqorida 2 ta (109 va 166), Uzun ko‘chada 2 ta (109 va 169), A.Navoiyda 1 ta (105), Iftixorda 3 ta (105, 169, 1 ta boshqa), Ittifoqda 3 ta (2 ta 169 va 1 ta boshqa) jinoyatlarning oldi olinmagan va “Qizil” toifaga kirgan.

Jinoyatlarni fosh etish va tezkor-qidiruv faoliyati bo‘yicha olib borilgan tahlillarga ko‘ra, joriy yilning 6 oyida noaniq sharoitda sodir etilgan jinoyatlar 50 tani tashkil qilib, shundan 15 tasi yoki 23,1 foizi fosh etilmasdan qolgan va viloyat ko‘rsatkichidan past (15,8%).

2023 yil boshidan qoldiqda bo‘lgan qidiruvdagi shaxslar 30 ta bo‘lib, joriy yilning 6 oyida hisobga qo‘yilgani 17 tani tashkil etgan, shundan 12 nafar qidiruvdagi shaxslar ushlanib, javobgarlik masalasi hal etilgan bo‘lsa, shu kuni holatiga qoldiqda 35 nafar qidiruvidagi shaxslar ushlanishi ta’minlanmagan.

Joriy yilning 6 oyi davomida tuman IIBning jami 13 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish haqidagi qarorlari jinoyat ishi qo‘zg‘atish yo‘li bilan bekor qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 24 moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Izboskan tumani prokurori B.Karimovning “2023 yil 6 oyida qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilikka qarshi kurash holati to‘g‘risida”gi xisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Izboskan tumani prokurori B.Karimovga:

-tumanda qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish;

-huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etish;

-ijtimoiy soha, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik sohalarida qonunlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish;

- yoshlar, shu jumladan voyaga yetmaganlar huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ko‘maklashish;

- huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda hal etish choralarini ko‘rish, joylarda sohaga doir sayyor va ommaviy qabullar tashkil etish tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Qobilova oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan targ‘ibot tushuntirish tadbirlari tizimli ravishda olib borilishini yo‘lga qo‘yib, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilmasligiga qaratilgan choralarni ko‘rib borsin.

4. Tuman matbuot xizmati (S.Mutalibov)ga tumanda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil bajarilishi, hududlarda huquq buzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash, qonun buzilishlarini oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni rasmiy veb saytlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud xuquq masalalari va

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Abdullev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Ismoilov**